



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **386 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **o'zgarishsiz qolgan**.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **91 taga oshgan**.

2018 yilning yanvar-mart oyida viloyatda 1,4 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 445 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,2 % ga kamaygan hamda ularning soni 268 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,3 mingta (4,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 28,2 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray (11,2 %), Zangiota (9,6 %) va Toshkent (7,0 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Toshkent viloyati	32,0	100,0	28,2	100,0
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	755	2,4	618	2,2
Ohangaron	715	2,2	636	2,3
Bekobod	877	2,7	749	2,7
Bo'stonliq	1551	4,8	1235	4,4
Bo'ka	1062	3,3	806	2,9
Quyichirchiq	787	2,5	707	2,5
Zangiota	3188	10,0	2706	9,6
Yuqorichirchiq	1827	5,7	1745	6,2
Qibray	3331	10,4	3154	11,2
Parkent	1619	5,1	1525	5,4
Piskent	846	2,6	763	2,7
O'rtachirchiq	1528	4,8	1383	4,9
Chinoz	1044	3,3	994	3,5
Yangiyo'l	1612	5,0	1335	4,7
Toshkent	2278	7,1	1962	7,0
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	725	2,3	669	2,4
Olmalik	1363	4,3	1276	4,5
Angren	2184	6,8	1679	6,0
Bekobod	955	3,0	895	3,2
Ohangaron	789	2,5	705	2,5
Chirchiq	1813	5,7	1697	6,0
Yangiyo'l	1182	3,7	969	3,4


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 88,1 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 11,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,6 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 19,1 % sanoatda, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,2 % qurilishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa va 26,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanvar-mart holatiga 1418 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (150 ta), Qibray (128 ta) va Toshkent tumanlariga (92 ta) to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (30 ta), Bekobod (38 ta), Oqqo'rg'on, Ohangaron, Quyichirchiq tumanlari hamda Ohangaron shahrida (40 tadan) tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (336 ta), savdoda (262 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (216 ta), qurilishda (177 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (114 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta), axborot va aloqada (34 ta) va tashish va saqlashda (56 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-mart holatiga.	2018 yil yanvar-mart holatiga.
Jami:	1318	1418
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	289	216
Sanoat	335	336
Qurilish	94	177
Savdo	237	262
Tashish va saqlash	61	56
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	131	114
Axborot va aloqa	25	34
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	24
Boshqa turlari	128	199

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-1,0 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,8 f.p), boshqa faoliyat turlarida (-0,5 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-0,3 f.p.dan), axborot va aloqada (-0,2 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,6 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,0 f.p.) hamda qurulishda (+1,2 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.04.2018 y.	01.04.2017 y.	farqi (+/-)
Savdo	22,0	23,1	-1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,8	2,7	-0,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,5	7,8	-0,3
Axborot va aloqa	1,4	1,6	-0,2
Tashish va saqlash	3,4	3,5	0,0
Sanoat	19,1	18,4	0,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11,1	10,1	1,0
Qurilish	7,2	6,0	1,2
Boshqa turlar	26,4	26,9	-0,5

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 aprel holatiga 23,1 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,5 mingta, oilaviy korxonalar – 1,4 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15,5 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,06 mingtani va boshqalar 7,1 mingtani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 631 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 546 taga yoki 15,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 378 tasi qo'shma korxonalar, 253 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Zangiota tumani 83 ta (13,2 %) Qibray tumani 76 ta (12,0 %) va Yuqorichirchiq tumani 62 ta (9,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Piskent tumani 6 ta (1,0 %) Bekobod shahri 5 ta (0,8 %), Bekobod tumani 4 ta (0,6 %) va Oqqo'rg'on, Bo'ka tumanlari 7 tadan (1,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 407 ta (64,5 %), savdoda 74 ta (11,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 57 ta (9,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 49 ta (7,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 6 ta (1,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 11 ta (1,7 %), tashish va saqlashda va qurilishda 13 tadan (2,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni



2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 41 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga ko'paygan yoki 2,9 baravarga oshgan.


Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi-11 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 8 ta, Qozog'iston Respublikasi – 7 ta, Turkiya Respublikasi – 6 ta va Koreya Respublikasi– 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Isroil, Latviya Respublikasi, Moldova Respublikasi, Turkmaniston va Buyuk Britaniya davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-mart holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 27 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5 ta, savdoda 4 ta, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 2 tava boshqa faoliyat turlarida 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 27,8 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 8,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2,7 mingtasi (11,7 %) Qibray, 2,3 mingtasi (9,9 %) Zangiota, 1,7 mingtasi (7,4 %) Toshkent hamda 1,5 mingtasi (6,6 foizi) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 27,8 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 6,2 mingtasi (27,0 %) – savdoda, 5,3 mingtasi (23,1 %) - sanoatda, 3,1 mingtasi (13,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2,1 mingtasi (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,0 mingtasi (8,9 %) - qurilishda, 1,0 mingtasi (4,2 %) - tashish va saqlashda, 0,4 mingtadan (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2,4 mingtasi (10,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 1,3 mintaga yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (146 ta), Qibray (124 ta), O'rtachirchiq (82 ta) va Toshkent tumanlarida (79 ta) tashkil etilgan. Eng kam Piskent tumani (24 ta), Ohangaron tumani (32 ta) hamda Ohangaron, Nurafshon (34 tadan) shaharlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (334 ta), savdoda (262 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (215 ta) va qurilishda (177 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (21 ta), axborot va aloqada (34 ta) hamda tashish va saqlashda (56 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 aprel holatiga 1579 tani tashkil etib, ulardan 1411 tasi yoki 89,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 16,7 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 40,6 % yoki 573 tasi sanoat, 18,6 % yoki 263 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,8 % yoki 237 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 15,9 % yoki 224 tasi savdo, 0,9 % yoki 13 tasi qurilish, 0,9 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 7 tasi axborot va aloqa, 0,4 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 5,5 % yoki 77 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: X.Igamberdiyev
(0371) 230-86-84,83